TA’LIMNI SIFATINI YAXSHILASHDA BAHOLASHNING O‘RNI

Isaqulova Baxtigul Xo‘jamovna

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, Ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Baholash bu, ta’limning eng nozik rag‘batlantirivchi quroli hisoblanadi. Mazkur maqolada baholashning ta’lim sifatini oshirishdagi roli, uning tizimdagi ayrim holatlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, oliy ta’lim, baholash, ta’lim-tarbiya, ta’lim sifati, samaradorligi, baholash shkalasi, qiziqish xususiyati.

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi, barcha sohalarda malakali mutaxasislar va yetuk kadrlarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan talabalarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim-tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.[5]

Masalaning muhim jihati shundaki, zamon talablariga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun zamonga mos ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim va tarbiya samaradorligiga erisha oladigan yuksak pedagogik mahoratga ega innovator professor - o‘qituvchilar talab etilmoqda. Zamon shiddat bilan rivojlanar ekan oliy ta’lim tizimida tinimsiz ravishda ilg‘or innovatsion texnologiyalarning yangi-yangi shakllarini qo‘llab borish talab etilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Ta’lim” tushunchasi juda keng talqin qilinadi. Shuningdek, ta’lim uni tashkil etishning turli – shaxsiy, institutsional, mintaqaviy, davlat darajalarida ham ko‘rib chiqiladi. E. Gusinskiy o‘z konsepsiyasida ta’lim tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Ta’lim – bu shaxsni madaniyatga o‘rgatish, uning tillarida savodxonlik va uning matnlarida yo‘naltirilganlikni egallashi jarayonidir”. Uning boshqa ta’rifi quyidagicha: “Ta’lim – bu dunyo haqidagi tushunchalar, g‘oyalar tizimini yaratish, shakllantirish va rivojlantirish jarayoni va natijasi bo‘lib, u maqsadga intilish imkoni beradi”.[3]

O‘zbekiston uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirishda baholashning o‘rni, ta’lim sifatini boshqarish, ta’limni boshqarish, sifatning tashqi monitoringini o‘rganish, ta’lim muassasalarini boshqarish muammolari E.Seytxalilov, Sh.Sharipov, J.Yo‘ldoshev, N.Yo‘ldoshevlar asarlarida o‘z ifodasini topgan. Sh.Ye. Qurbonova, U.I. Inoyatov, R.Sh.Axliddinov va boshqalar ushbu muammolarni o‘z asarlarida keng talqinda yoqritib berganlar.[2]

Shu bilan birga, ko‘rsatilgan parametrlarning doimiy o‘zgaruvchanligi tufayli ular bo‘yicha ta’lim sifatini baholashning murakkab bo‘lishi aniq. Bu borada G.N.Serikov shunday fikr bildiradi: “Shaxsning rivojlanishiga yo‘naltirilgan ta’lim o‘z maqsadiga u shaxs, uning o‘zini o‘zi rivojlantirish kuchlari talab qilinadigan vaziyatni yaratadigan darajada erishadi”. Shuning uchun inson, birinchi navbatda, boshqalar orasida, boshqalar uchun va bu bilan o‘zi uchun shaxsiylashtirilgan, o‘zligini biladigan shaxs sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Zamonaviy sharoitda nafaqat ta’lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o‘quv faoliyatlarini nazorat qilishda ham innovatsion xarakterga ega vositalardan foydalanilmoqda. Ayni o‘rinda ana shunday vositalardan biri – “Assesment” texnologiyasi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz. “Assesment” inglizcha so‘z bo‘lib, “baho”, “baholash” ma’nosini bildiradi. Assesment texnologiyasi talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami bo‘lib, u biografik anketa, ta’lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o‘quv individual topshiriq, ijodiy ish, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot, ekspert kuzatish, muammoli vaziyat, izohli lug‘at, rolli hamda ishbilarmonlik o‘yinlari kabilardan tashkil topadi. Texnologiya, asosan, quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:

1) talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini har tomonlama, xolis baholash;

2) talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

3) talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan istiqbolli reja (maqsadli dastur) ni shakllantirish.[3]

Mazkur texnologiyaning yaratilish tarixi o‘tgan asrning 30-40-yillariga borib taqaladi. Dastlab texnologiya mavjud harbiy vaziyatlarni to‘g‘ri baholay oladigan, harbiy harakatlar jarayonini samarali boshqaradigan, zarur o‘rinlarda oqilona harakatni tashkil eta oladigan ingliz hamda nemis harbiylari orasidan bilimdon, tadbirkor, mahoratli harbiylar, shuningdek, ofitserlarni tanlash maqsadida qo‘llanilgan. Keyinchalik ushbu texnologiya tadbirkorlik sohasiga ham samarali tatbiq etildi.

NATIJALAR

Davlatimiz rahbarining «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq, talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi yangi nizom ishlab chiqiladi. Mazkur hujjatda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tasarrufida oliy ta’lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlashi lozimligi belgilangan. Bunda asosiy e’tibor baholash tizimi va mezonlarini uzluksiz ta’lim tizimining bosqichlariga muvofiqlashtirish, ta’lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini, shu jumladan, muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizimni joriy etish hamda semestr yakuni bo‘yicha akademik qarzdor talabaning qayta topshirishi mumkin bo‘lgan fanlar sonini belgilashga va ularni topshirish muddatini o‘zgartirishga qaratiladi.

Talabalar bilimini baholash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida amalga oshirilgan baholash mezoni haqida to‘xtalib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsusta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018- son buyrug‘idabaholash tizimini haqida tavsiyalar ishlab chiqildi.Undabaholik va ballik tizimda baholash tizimlar haqida aniq tavsiyalar berilgan.Jumladan:

Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o‘tkazish

JADVALI

5 baholik shkala	**100 ballik shkala**	**5 baholik shkala**	**100 ballik shkala**	**5 baholik shkala**	**100 ballik shkala**
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 —	88	3,70 —	74	3,00	60

4,36			3,66				
4,35 — 4,31	87		3,65 — 3,61	73		3,0 dan kam	60 dan kam

XULOSA VA MUNOZARA

O‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a undovchi, bunyodkorlikka rag‘batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi hamda u ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. SHu bois har bir o‘qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to‘la tushungan holda o‘z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa ta’lim jarayoni ham sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimining rivojini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, innovatsion nazorat texnologiyalari ta’lim samaradorligini oshirishga oqilona va ijodiy yondoshishga olib keladi va bunda ta’lim beruvchi o‘z erkinligiga ega bo‘ladi, darsda qo‘llanilgan turli usullar, vositalar samaradorligini o‘zi baholashi uchun imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020-yil 23-sentyabr O‘RQ-637-son

2. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012.

3. Абдуллаева, Ш. А. (2018). Современные педагогические проблемы средней школы. Редакционная коллегия,B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017-yil

4. Abdullayeva G.A. Quality of educational work in the general secondary education system as a problem // Экономика и социум. 2021. №11-1 (90).

5. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida Qonunchilik palatasi tomonidan 2009-yil 22-yanvarda qabul qilingan, Senat tomonidan 2009-yil 27-martda ma’qullangan.